

2025
№2

ISSN 2181-6131



TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalning indeks raqami: 3535



JDFPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI



Suratda Buyuk Britaniyaning eng mashhur
va zamonaviy jamoat kutubxonalaridan biri –
Liverpool markaziy kutubxonasi.

...to forgive your enemies;
annoys them so much

2025 №2

TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalning index raqami: 3535



JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI



BOSH MUHARRIR

Shavkat Sharipov – pedagogika fanlari doktori, professor.

MUHARRIR O'RINBOSARI

Farrux Aqchayev – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

MAS'UL KOTIB

Xurshid Maxammadiyev – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

TARJIMONLAR:

Zubayda Jumayeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (rus tili bo'yicha).

Eldar Hasanov – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (rus tili bo'yicha).

Anora Jabborova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (ingliz tili bo'yicha).

Dildora Baxriddinova – katta o'qituvchi (ingliz tili bo'yicha).

MUSAHHIHLAR

Feruza Jumayeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Murodulla Jo'rayev – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

SAHIFALOVCHILAR

Sirojiddin Turg'unboyev

Zulayxo Shakarova

MUASSIS – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti.

Jurnal yilda 4 marta (har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan iqtibos va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ma'lumot ko'chirib olinganda, manba qayd etilishi shart.

Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy.

Telefon: +998 72 226 02 93,
+998 93 298 22 12

Faks: +998 72 226 46 56

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- **Anatoliy Sagdullayev**, tarix fanlari doktori, akademik
- **Komiljon Tojiboyev**, biologiya fanlari doktori, akademik
- **Andrey Zuyev**, Novosibirsk davlat universitetining Gumanitar instituti professori, tarix fanlari doktori (Rossiya)
- **Stiven Korbet**, Portsmud universiteti, tillar va amaliy tilshunoslik yo'nalishi professori (Buyuk Britaniya)
- **Seyko Wazake**, Chibu universiteti doktori (Yaponiya)
- **Donina Lyudmila**, Sankt-Peterburg davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (Rossiya)
- **Jakelin Duglas**, Norwich tillar o'qitish instituti professori (Buyuk Britaniya)
- **Himmet Karadal**, Izzet Baysal universiteti professori (Turkiya)
- **Tuba Yilmaz**, Nejmiddin Erbakan universiteti professori (Turkiya)
- **Qozoqboy Yo'ldoshev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Abdunazar Nurmonov**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Usmonjon Qosimov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Abdug'afur Mamatov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Umrzoq Jumanazarov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Faniya Axmedshina**, tarix fanlari doktori, professor
- **Shokir G'afforov**, tarix fanlari doktori, professor
- **Baxti Ochilova**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Akbar Saitkasimov**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Zuhra Yaxshiyeva**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Marat Sultonov**, kimyo fanlari doktori, professor
- **G'ayrat Qodirov**, biologiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Xudoybergan Mavlonov**, biologiya fanlari doktori, dotsent
- **Raximboy Yarmatov**, pedagogika fanlari doktori, dotsent
- **Rustam Abdurasulov**, psixologiya fanlari doktori, dotsent
- **Yulduz Karimova**, filologiya fanlari doktori, dotsent
- **Ilyos Islamov**, tarix fanlari doktori, dotsent
- **Mo'min Hoshimxonov**, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari doktori
- **Hamid Meliyev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Furqat Axmedov**, pedagogika fanlari nomzodi, professor
- **Kamoliddin Zoyirov**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
- **Muxtorqul Pardayev**, tarix fanlari nomzodi, dotsent
- **Oleg Kim**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Botir To'xtamishov**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Rabbim Yusupov**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Abduvali Shamshiyev**, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
- **Qo'chqor Hakimov**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Sarvar Nazarqosimov**, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Sherali Abduraimov**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Feruza Jumayeva**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Bobomurod Toshboyev**, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181-6131.

2025-yil 25-iyun kuni bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi A4.

Buyurtma: _____

Nashr adadi: 100

JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI



MUNDARIJA

01. TAHRIRIYAT MINBARI

Qadriyatlar va innovatsiyalar: ta'limda o'zbek va fin yondashuvi uyg'unligi	11
Shavkat Safarovich Sharipov – p.f.d., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Sanobar Ibragimovna Kenjayeva – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

02. TAQVIM

Jahon she'riyatining yorqin sahifalari (Zulfiya tavalludining 110 yilligiga)	22
Usmon Qosimov – professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Fotima Jumanova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Amir Temur – adolat va qudrat timsoli	26
Raya Ro'ziyevna Nurqulova – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Nurjaxon Tangirova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

03. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

Talabalarni dual va an'anaviy o'qitishda ularning motivatsiyalarini	
"Motype" metodikasidan foydalanib aniqlashga oid psixologik tadqiqotlar	32
Ismoil Norkobilovich Kodirov – f.m.f.n., professor, Qarshi davlat texnika universiteti	
Ta'lim jarayonini boshqarishga tayyorlashda kompetentli yondashuv mexanizmlari	38
A'zam Januzaqovich Avazov – i.f.f.d., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Innovatsion boshqaruv tushunchasi va ta'lim tizimiga tatbiqi	42
Akmal Sirliyevich Ko'bayev – p.f.f.d., dotsent, Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi	
Muhandislarning kasbiy kommunikativ kompetentligi tuzilmasi	47
Ulug'bek Xujayevich Mingboyev – p.f.b.f.d., dotsent, O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali	
Alisher Shirinboyevich Raxmatov – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
STEAM yondashuvi hamda virtual reallik (VR) texnologiyasidan foydalanish orqali	
bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish	52
Mansur Anorboyevich Tayirov – Registrator ofisi menejeri, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirish	
logistikasining o'rni	57
Dilmurod Abdixalilovich Badalov – katta o'qituvchi, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga boshlang'ich sinf o'quvchilarini	
matn ustida ishlash orqali nutqini va ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish	62
Shoxista Jaloliddin qizi Sotiboldiyeva – katta o'qituvchi, Toshkent amaliy fanlar universiteti	

Elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari.	67
Muxayyo Otaqulovna Xoldarova – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Ta'limiy faoliyatlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni rivojlantirish	74
Nargiza Abduraimovna Toshpulatova – magistrant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda topishmoqlardan foydalanishning mazmuni	80
Fayyoza Boxodirovna Bo'riyeva – magistrant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti	

04. AMALIY FANLAR

O'quvchilar jismoniy madaniyatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari	87
Furqat Ko'ldoshevich Axmedov – professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Akmal Tugalboyevich Quvondikov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Siroj Furqat o'g'li Kuldashov – mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Оптимизация подготовки одарённых футболистов.	91
Ильдар Ахмедович Кошбахтиев – д.п.н., профессор, Университет Oriental	
Дамир Канганович Исмагилов – д.ф., (PhD) по п.н., доцент	
Образовательный университет Ренессанс	
Jismoniy madaniyat o'qituvchilarining sun'iy intellekt texnologiyalari bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish strategiyalari.	96
Alisher Isaqovich Olimov – p.f.b.f.d., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Yunon-rim kurashchilarini texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan qo'lni bo'yinga o'rab tashlash harakatining kinematik asoslari (texnik harakat chap tomonga bajarilishi asosida olingan).	103
Djasur Yuldashevich Tashnazarov – p.f.b.f.d., dotsent, Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti	
Umumta'lim maktablari texnologiya darslarida didaktik o'yinlaridan foydalanish.	112
Nuriddin Yahyoqulovich Qurbonov – p.f.f.d., dotsent, Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi	
Talabalarga xalq hunarmandchiligi tarixini o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyati.	118
Sarvinov Uktamovna Esanova – o'qituvchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	

05. IJTIMOIIY FANLAR

Axborotlashgan jamiyatda innovatsion rivojlanish va uning inson farovonligiga konstruktiv ta'siri.	125
Akbar Saitkasimov – professor, f.f.d., Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Sug'd konfederatsiyasi tanazzuliga sabab bo'lgan omillar.	128
Bobir Sobirovich G'oyibov – t.f.d., professor, Samarqand davlat universiteti	

Jizzax vohasi aholisining suv bilan bog'liq qarashlari: tarixiy-etnologik tahlil	132
Farrux Shavkatovich Aqchayev – t.f.b.f.d., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Samandar G'iyosov – talaba, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Zamonaviy targ'ibotning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi roli	137
Ramz Rizoqulovich Rustamov – dotsent, Qarshi davlat texnika universiteti	
Global o'zgarishlar davrida yoshlarda tafakkurning individual va kreativ xususiyatlarini shakllantirish	142
Umidjon Saidkamolovich Musayev – f.f.d., dotsent, Ma'mun universiteti	
Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida mas'uliyat va mehr tushunchalarining tasnifi	149
Dilnoza Umirzaqovna Jumanazarova – p.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Ijtimoiy faol va tashabbuskor yoshlar – O'zbekistonning kelajagi, yurtimizning oltin fondi	152
Sharofutdin Bahodirovich Xonimov – f.f.b.f.d., O'zbekiston Respublikasi	
Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati bo'lim boshlig'i	
Mustaqillikning ilk yillarida Samarqand viloyati oziq-ovqat ta'minoti tarixi	156
Doston Olim o'g'li Bosimov – korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Sovet davridagi ijtimoiy infratuzilmalar va shahar madaniyati: Buxoro misolida	162
Nafisa Zakirovna Hayotova – t.f.b.f.d., doktorant, Buxoro davlat universiteti	
Kursantlarni ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash metodikasi ("Harbiy san'at tarixi, milliy harbiy meros va O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani misolida)	168
Bahodir Tursunovich Xaitov – dotsent, Chirchiq oliy tank	
qo'mondonlik muhandislik bilim yurti	
Dahollikning ijtimoiy ahamiyati – g'oyalar, innovatsiyalar va barqaror taraqqiyotning o'zaro ta'siri	172
G'olibjon Nabijonovich Fozilov – katta o'qituvchi, O'zbekiston Milliy universiteti	

06. FILOLOGIYA FANLARI

Semantic-structural features of English horoscopes	179
Shoira Batirovna Yusupova – professor, National University of Uzbekistan	
Gulkhayo Muxiddin kizi Jalolova – teacher, National University of Uzbekistan	
Yulduz Muxiddin kizi Jalolova – tutor, Jizzakh State Pedagogical University	
Paremiyalarda genderning ifodalanishi	183
Ilhom Rozmamatovich Kazakov – f.f.d., dotsent, Berdaq	
nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti	
Alisher Navoiy ijodida aks etgan boshqaruv masalalari talqini	190
Ikrom Quchqarovich Buronov – dotsent, Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi	
Mumtoz badiiy matn tahlilida sun'iy intellekt (ChatGPT)dan foydalansa bo'ladimi?	197
Oybek Berdimurod o'g'li Normurodov – f.f.b.f.d., dotsent v.b., Guliston davlat universiteti	

Современные технологии в обучении русскому языку студентов национальных групп технических ВУЗов	206
Нигора Уриновна Хомидова – доцент и.о., Навойский государственный горно-технологический университет	
Turkiy-o'zbek adabiyotida she'r va shoir haqidagi qarashlar qiyosiy tadqiqi	209
Xolyigit Xolmurodov – f.f.b.f.d., Jizzax davlat pedagogika universiteti	
The use of wordless graphic novels to foster imaginative writing in young ESL Learners	217
Komila Khudoiberdievna Abduvaliyeva – PhD in Pedagogical Sciences, Senior Lecturer, Jizzakh State Pedagogical University Jasmina Jahongir qizi Abduvalieva – student, Jizzakh State Pedagogical University	
Ingliz va o'zbek tillarida so'z o'zlashtirish usulining geologiya terminlarining shakllanishidagi o'rni	220
Barno Toirkulovna Turdikulova – katta o'qituvchi, Guliston davlat pedagogika instituti	
Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asaridagi konchilikka oid toponimlarning pedagogik tahlili	224
Gulshan Ishonqulova – katta o'qituvchi, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	
O'zbek tili morfologiyasida fuziya va agglutinatsiya nisbatiga doir qarashlar	229
Ozoda Ibrohimovna Aslanova – katta o'qituvchi, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	

07. TABIIY VA ANIQ FANLAR

Raqamlashtirish kontekstida "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanini iyerarxik tuzilmaviy yondashuv asosida o'qitishning asosiy tamoyillari	236
Nuriddin G'ayratovich Ergashev – professor, Qarshi davlat texnika universiteti	
Tenglamalarni yechishda funktsiyaning ba'zi bir xossalardan foydalanish	243
Axmadjon Axlimirzayev – professor, Andijon davlat universiteti, Ziyoda Talibdjanovna Rustamova – katta o'qituvchi, Andijon davlat universiteti	
Dasturlash bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirishda tizimli-algoritmik yondashuvning ahamiyati	251
Fazliddin Xikmatovich Xazratov – p.f.b.f.d., dotsent, Buxoro davlat universiteti	
Sun'iy intellektning imkoniyatlari va xavflari	257
Buvsara Abdumannonovna Djurayeva – PhD, dotsent v.b., Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga raqamli ta'lim muhitida fizika fanini o'qitishning konseptual asoslari	263
Samar Sattor o'g'li Alikulov – dotsent, Jizzax politexnika instituti	
Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va ilg'or xorijiy tajribalar	271
Doston Keldibekovich Norbekov – katta o'qituvchi, Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi	

O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari.....	276
Umida Eshmirzayevna Mamatkulova – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Patologik fiziologiya fanini o'qitishda IT texnologiyalarining o'rni.....	282
Gulnoza Ablakulovna Abdirashidova – katta o'qituvchi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti	
Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonida talabalarga o'zaro ta'siri va raqamli media matn va tasvirga ishlov berishning ahamiyati.....	287
Sadridin Salim o'g'li Normurodov – o'qituvchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	
Oliy matematika o'qitishda tanqidiy fikrlash va kompetentlik yondashuvining o'zaro bog'liqligi	293
Boyhuroz Shermuhammadovich Rahimov – o'qituvchi, Jizzax politexnika instituti	
Qaxramon Azimov – o'qituvchi, Jizzax politexnika instituti	

08. YOSH TADQIQOTCHILAR

Cho'pon obrazining ramziy va falsafiy ma'nolari.....	297
Iroda G'ulom qizi Mamadiyeva – o'qituvchi, Guliston davlat pedagogika instituti	
Факторы развития мышления одаренных учащихся при обучении русскому языку	304
Мая Хусановна Ишмурадова – преподаватель, РКИ Президентской школы г. Джизак	
Akademik J. Tulenov tomonidan tafakkur usuli va uslubi masalalarining tahlil etilishi.....	308
Murod Rustamovich Shokirov – bosh o'qituvchi, Buxoro akademik litseyi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi	
Qur'oni Karim va hadislarda asal va asalarining hikmati haqida	314
Sanjar Xamzayevich Bazarbayev – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarini kasbiy ma'naviy nafosatli shaxs qilib tarbiyalashning ba'zi muammolari va yechimlari	317
Raufjon Rahimjon o'g'li Xalilov – o'qituvchi, Termiz davlat pedagogika instituti	
Ta'limda o'zbek kashtachiligining tarbiyaviy ahamiyati	321
Mexriniso Bekmuradovna Ermatova – o'qituvchi, Denov tadbirkorlik va pedagogik instituti	
A reflection of John Tolkien's worldview on his work	324
Ruslan Arsenovich Asanov – teacher, Gulistan State Pedagogical Institute	
Sun'iy intellekt yordamida talabalar kasbiy kompetentligini baholashning samarali usullari.....	328
Nilufar Avaz qizi Amonova – o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti	
Umidjon Abdurashid o'g'li G'apbarov – mustaqil izlanuvchi, Buxoro davlat universiteti	
Pragmatic differences of verb phraseology in English and Uzbek languages	334
Dildora Bekmirza qizi Turdiboyeva – PhD student, teacher, Jizzakh State Pedagogical University	
O'quvchilarda tanqidiy yondashuv asosida ijodiy fikrlashni takomillashtirishning nazariy asoslari ..	340
Ra'no Xolboy qizi Burxonova – tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

Stilistik lingvopoetika: Nazar Eshonqulning "Momoqo'shiq" qissasida til birliklarining badiiy-estetik yuklamasi.	345
Dildora Baxtiyor qizi Safarova – tayanch doktorant, Samarqand davlat universiteti	
Теоритические основы исследования теме Востока и Запада.	348
Озода Азамова – магистрант, Джизакский государственный педагогический университет	
Научный руководитель – профессор Пардаева Зульфия Джураевна	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy an'ana va qadriyatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-axloqiy masalalari.	354
Nilufar Sherzod qizi Xodiyeva – magistrant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti	
Alisher Navoiyning tahrir ishlari (kichik lirik she'rlari misolida)	358
Shavkat Egamberdiyevich Yangiboyev – mustaqil tadqiqotchi, Xalqaro innovatsion universiteti	
Ingliz tilida mumkinlik ma'nosini ifodalovchi leksik tizimlar tahlili.	362
Mehribon Allayorovna Rahimova – doktorant, Urganch davlat universiteti	
Professional ta'limda ijtimoiy hamkorlikni qo'llashning mohiyati, rivojlanishi va uning pedagogik jihatlari.	367
Ilxom Panjiyevich Xuramov – tayanch doktorant, Termiz davlat universiteti	
Talabalarning matematik savodxonligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning ilmiy metodik ahamiyati.	371
Iroda Po'lat qizi Sadullayeva – tayanch doktorant, Navoiy davlat universiteti	
Buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli.	378
Visola Namozovna Arziyeva – tayanch doktorant, Jizzax politexnika instituti	
Педагогическая креативность: от традиционных подходов к современной 4К-модели.	382
Шахризода Махмудовна Шукурова – магистрант, Узбекско-Финского педагогического институт	
Формирование гуманной педагогики в творческом наследии Шалвы Александрович Амонашвили.	388
Исломбек Бахтиёр угли Жоникулов – студент, Чирчикский государственный педагогический университет	
Научный руководитель: ф. ф.н., доцент Екабсонс А.В.	

SOVET DAVRIDAGI IJTIMOIV INFRATUZILMALAR VA SHAHAR MADANIYATI: BUXORO MISOLIDA

Nafisa Zakirovna Hayotova – t.f.b.f.d.,
doktorant, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sovet davrida Buxoro shahrida o'ziga xos shaharsozlik tizimining shakllanish jarayonida ijtimoiy infratuzilmaning tutgan o'rni tahlil qilingan. Xususan, ta'lim muassasalarining barpo etilishi, tibbiy xizmat infratuzilmasining kengayishi shahar madaniyatida yuz bergan transformatsiyalar yoritilgan. Sovet tuzumi tomonidan amalga oshirilgan mafkuraviy siyosat doirasida barpo qilingan maktablar, texnikumlar, shifoxonalar nafaqat xizmat ko'rsatish maskani, balki sotsialistik tarbiya va jamiyat ongini shakllantirish vositasi sifatida ham faoliyat ko'rsatganligi aytib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье проанализирована роль социальной инфраструктуры в формировании своеобразной системы градостроительства в городе Бухара в советский период. В частности, освещены трансформации, произошедшие в городской культуре благодаря строительству учебных заведений и расширению инфраструктуры медицинского обслуживания. Школы, техникумы и больницы, построенные в рамках идеологической политики советского строя, функционировали не только как места оказания услуг, но и как средства социалистического воспитания и формирования общественного сознания.

Abstract. This article analyzes the role of social infrastructure in the formation of a unique urban planning system in Bukhara during the Soviet period. In particular, it highlights the transformations that occurred in the city's cultural landscape through the construction of educational institutions and the expansion of medical service infrastructure. Schools, technical colleges, and hospitals built within the ideological framework of the Soviet regime served not only as service institutions but also functioned as tools for socialist upbringing and shaping public consciousness.

Kalit so'zlar: madaniy-maishiy obyektlar, sotsialistik g'oya, zamonaviylashish, me'moriy yodgorlik, kasbiy, texnik, jamoat arboblari.

Ключевые слова: культурно-бытовые объекты, социалистическая идея, модернизация, архитектурный памятник, профессиональный, технический, общественные деятели.

Keywords: cultural and everyday facilities, socialist idea, modernization, architectural monument, professional, technical, public figures.

1924-yilda Milliy hududiy chegaralanish o'tkazilishi munosabati bilan yangi tashkil etilgan respublikalar qatori O'zbekiston respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Sovet hukumati dastlabki yillarda sovet mafkurasini kuchaytirish, xalq xo'jaligini tiklash va muxolifat tarafni bartaraf etish maqsadida ijtimoiy soha hamda madaniy-maishiy sohalarida ma'lum bir yengilliklarga izn bergan bo'lsa, XX asrning 20-yillari oxiriga kelib, totalitar tuzum zo'raygan sari kommunistik nazariyaga asoslangan siyosat olib borildi. Bu jarayon shaharning ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga

katta ta'sir ko'rsatdi hamda shahar madaniyati shakllanish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan, asrlar davomida amirlik markazi hisoblangan eski Buxoro shahri misolida buni yaqqol kuzatishimiz mumkin.

1925-yilda Buxoro shahri O'zbekiston SSR territoriyasida ma'muriy bo'linish oqibatida tashkil qilingan Zarafshon viloyati tarkibidagi 4 ta uyezdning (Buxoro, G'ijduvon, Karmana, Nurota) markaziy shahri bo'lgan¹. Sovet hukumati Buxoroda ijtimoiy infratuzilmalar, ayniqsa, ta'lim, tibbiyot va madaniy-maishiy obyektlarni

1 Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 хоз. год. С приложением схематической карты Средней Азии. – Ташкент: Изд. Средне-Азиатского отделения Российско-Восточной торговой палаты, 1926. – С.90.

shakllantirish orqali shahar madaniyatini sotsialistik model asosida qayta qurishga harakat qildi.

Buxoro shahrida sovet davrida shahar madaniyatini rivojlanishini o'rganishda bir qator ilmiy va arxiv manbalar mavjud bo'lib, ular mavzuga oid tadqiqotlarga zamin yaratadi. K. Rahmonovning "Buxoro Xalq Sovet respublikasi tarixi matbuot sahifalarida" nomli ilmiy ishida 1920-1924 yillar davomida shaharda olib borilgan qurilishlar, ijtimoiy infrastrukturaning yaratilishi, yo'llarni ta'mirlash ishlari hamda madaniy transformatsiyalar tahlil qilingan. O.A.Suxarevaning Buxoro shahriga oid ilmiy tadqiqotlari mavzuni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Suxareva yangi ma'muriy ijtimoiy tuzum ta'siridagi urbanistik o'zgarishlarni manbalar asosida yoritib bergan. X.To'raevning ta'lim muassasasiga bag'ishlangan tadqiqotida sovet davrida ijtimoiy binolarning tashkil topishi, arxitekturaviy xususiyatlari va ularning takomillashuvi o'rganilgan. Shuningdek, mavzuni o'rganishda arxiv manbalari hamda binolar pasporti ma'lumotlari jamoat inshootlarining bunyod etilishi hamda faoliyatini tadqiq etishda asosiy manba vazifasini o'taydi.

XX asrning ikkinchi choragida Buxoro shahrida ijtimoiy infratuzilma muassasalarini barpo etish hamda rivojlantirish sovet shaharsozlik siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Sovet hukumati ta'lim tizimini yangi sotsialistik konsepsiya asosida shakllantirishga kirishdi. Sotsialistik g'oyalar, yer va yirik ko'chmas mulkka xususiy mulkchilikning bekor qilinishi, sotsialistik xo'jalikning rejali asoslari shaharsozlik izlanishlari, yangi ijtimoiy mazmunga ega bino turlarini yaratish, me'morchilikda yangi uslublarning ishlab chiqish yo'nalishida oldin kuzatilmagan imkoniyatlarni

ochdi. Sotsialistik madaniyat va sovet shaharsozligi eski va yangi, ilg'or va konservativ omillar bilan bir-biriga chambarchas bog'langan sharoitda shakllantirishga harakat qilindi. Yangi me'morlik uslubi qanday bo'lishi kerakligi, ayniqsa ko'p millatli xududda hamda ziddiyatli davrda bu borada oldindan aniq yo'nalish yillar o'tgan sari ishlab chiqildi. Urbanizatsiya jarayonining taraqqiy qilishi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari, aholi sonining ortishi natijasida yangi ta'lim muassasalari, madaniyat hamda istirohat obyektlarini barpo etish talab etildi. Mazkur tuzilmalar nafaqat aholiga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, balki sotsialistik mafkurani mustahkamlashga yordam qildi.

Buxoro shahrida ta'lim muassasalar tarmog'i bosqichma-bosqich kengayib bordi. Turli sohalarida mutaxassislar tayyorlash maqsadida oliy ta'lim hamda bir necha o'rta maxsus muassasalar tashkil etildi. 1922-yilda Buxoro shahrida birinchi dorilmuallimin (o'qituvchi kadrlar tayyorlaydigan) ochilgan. "Dorilmualliminning ochilishi ilm va maorif yo'lida birinchi odimdir. Buxoroning istiqboli va saodati uchun dorilmualliminning yashamog'i lozimdur"². Bu esa shaharda oliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish uchun dastlabki qadam bo'ldi. 1924-yilda Buxoro Arkining chap tomonida, Navmichkat deb ataluvchi ko'hna shahriston tugash joyining xiyol shimolida, Xo'ja Nurobod guzarida Yevropa uslubida qurilgan ikki qavatli pishiq g'ishtli bino barpo etildi. Ushbu inshoot shaharning zamonaviylashish jarayonida muhim ahamiyat kasb etib, Buxoro davlat pedagogika institutining bosh korpusi sifatida foydalanildi³. Bino me'moriy yechimida sovet arxitekturasiga xos bo'lgan minimalistik uslub va funksional yondashuv ustuvorlik kasb etgan. Tarixiy shaharsozlikda ilgari mahalliy g'ishtli

2 K. Раҳмонов Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар). Т: "ABU MATBUOT-KONSALT". 2012.-Б.98.

3 А. Тўлаганов, Х. Тўраев. Бухоро давлат университетининг тарихий ва замонавий ўқув бинолари ҳамда иншоотлари. Бухоро.2016. – Б.4.

binolardan farqli ravishda, Yevropa uslubidagi binolar geometriya, fasad va ichki tuzilish nuqtai nazaridan to'g'ri chiziqlar va simmetrik shakllarga ega bo'la boshladi. Bino o'z davrining me'moriy yodgorligi hisoblanib, zinapoyasi keng, o'quv xonalari katta va baland qilib qurilgan.



Ushbu binoda institutning tarix, ximiya-biologiya, keyinchalik filologiya bo'limlari faoliyat ko'rsatgan. Hozirda bu binoda tarix faniga ixtisoslashgan Buxoro shahri 6-sonli maxsus maktab faoliyat ko'rsatadi.

Pedagogika institutining shahar bo'ylab bir qancha o'quv binolari tashkil qilinadi. Arkning o'ng tomonida, O'g'lon va hazrati Imom qal'a darvozalari oraliqidagi eski guzarlar, ya'ni Nazarcha, Xosa Po'lod, Qozi Mir Hoshim guzarlari hududida 1950-yillarda shahar qal'asining ichkari qismiga yaqin hovllilar buzilib, sovet uslubidagi yangi binolar qurilishi munosabati bilan bu hududda harbiy kazarma binosi barpo etiladi. Harbiy kazarma old tomoni bir-biriga o'xshash ayvonchali ikki kirish joyi, ichkari qismi uzun koridor va uning atrofida yotish zallari, shuningdek, sport zali va maydonchadan iborat bo'lgan⁴. Keyinchalik kazarma o'quv binosiga moslab rekonstruksiya qilindi va Buxoro pedagogika institutining fizika-matematika fakultetiga berildi. Ushbu binoda 2006-yilga

qadar fizika-matematika, o'zbek filologiyasi va uning tarix bo'limi, jismoniy tarbiya hamda pedagogika fakultetlari faoliyat ko'rsatgan. O'quv bino yaqinida, aniqrog'i orqa tomonida boshqa bir bino ham mavjud bo'lib, unda pedagogika institutining kadrlarni qayta tayyorlov bo'limi, biroq vaqtdan so'ng esa Boshlang'ich harbiy ta'lim fakulteti faoliyat yuritgan. 2006-yilda har ikkala bino foydalanish uchun xavfli deb topilganidan so'ng buzib tashlandi va uning o'rniga zamonaviy kollej binosi barpo etildi.

Sovet davrida o'rta maxsus ta'lim muassasalarining tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur davrda qurilgan ta'lim muassasalari, eng avvalo, aholi o'rtasidagi savodsizlikni bartaraf etish hamda sotsialistik jamiyat talablariga xos kadrlarni tayyorlashga qaratilgan edi. Bunday siyosat uzoq muddatli reja asosida amalga oshirilib borildi. Natijada Buxoro aholisining bilimini oshirish bilan birga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishi uchun sovet mafkurasiga asoslangan ta'limiy muhit yaratildi. "Savodsizlikni tugatish eng muhim masala va butun mehnatkashlarni ittifoqimizdagi sotsializm qurilishida haqiqiy va ommaviy qatnashishini ta'min etuvchi eng muhim vazifa..." sifatida ko'rsatilgan maqolalar matbuot sahifalarida tez-tez chiqardi⁵. Bu jarayon Buxoroning shahar madaniyati va urbanizatsiyada muhim qadam bo'lib, ta'lim muassasalari nafaqat sovet mafkurasi targ'ibot markazlari, balki shahar infratuzilmasining ajralmas qismiga aylandi. Tez orada shaharda qishloq xo'jaligi, savdo va tibbiyot sohalari uchun maxsus o'rta ta'lim muassasalari – texnikum va bilim yurtlari (uchilishelar) tashkil qilina boshlandi. Texnikumlar asosan kasbiy va ilmiy-texnik sohasidagi kadrlarni tayyorlashda ixtisoslashgan bo'lib, o'qish muddati 3-4 yilgacha bo'lgan. Bitiruvchilar texnika sohasidagi muhandislikka yaqin mutaxassislar,

4 A. Тўлаганов, X. Тўраев. Бухоро давлат университетининг тарихий ва замонавий ўқув бинолари ҳамда иншоотлари. Бухоро. 2016 – Б.6.

5 Хўжаев Ф. Маданий курашнинг 10 йиллиги // "Ишчи" газетаси, 1929 йил 26 декабрь.

jumladan, agronom, mexanik, energetik kabi kadrlar yetishib chiqqan. Uchilishlar ishchi kasblariga ixtisoslashgan o'rta maxsus ta'lim muassasalari hisoblangan. Bu muassasalar kasbiy tayyorlov yoki kasb-hunar maktabi sifatida qaralib, quruvchi, tokar, tikuvchi, parrandachi va boshqa kasb egalari tayyorlangan. O'qish muddati 1,5-3 yilgacha bo'lgan. 1930-yillar Buxoro shahrida kasbiy ta'lim tizimini shakllantirish va mutaxassis kadrlar tayyorlash borasida yangi bir davr boshlandi. Buxoro shahridagi ilk texnikumlardan biri tibbiyot texnikumi bo'lib, dastlab feldsherlar maktabi tarzida bunyod etiladi. Feldsherlar maktabi Mirza Rahmatulov ko'chasida bunyod etilib, 3 yillik ta'lim tizimiga mo'ljallangan bo'lgan. Muassasa tibbiy yordam ko'rsatuvchi mutaxassis — feldsherlar tayyorlashda muhim o'rin tutgan. Feldsherlar maktabi 220 talaba kontingentiga mo'ljallangan bo'lib, 1936-yilda ta'lim muassasasini 179 nafar bitiruvchi tamomlagan⁶. Ushbu maktab keyinchalik Tibbiyot bilim yurti ("Meditsinskoe uchilish") deb nomlana boshlangan. Shuningdek, Frunze ko'chasining 17-uyida 1-sonli 213 nafar talaba kontingentiga mo'ljallangan pedagogik texnikum quriladi. 2-sonli Pedagogik texnikumi Ko'kaldosh ko'chasi, 64 uyda tashkil qilinadi. Ushbu texnikumlar viloyatdagi umumta'lim maktablari uchun kadrlar tayyorlashda yetakchi manba bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, Buxoro shahrining Lenin ko'chasida (hozirda B.Naqshband) Qishloq xo'jalik texnikumi, Voenkomat ko'chasida Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash texnikumi, Nizomiy ko'chasida (hozirda I.Karimov) Savdo-kooperativ texnikumlari sohaviy mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri amaliy kadrlarni yetishtirishga mo'ljallangan edi. Ta'lim muassasalarining bunday keng qamrovli tarzda bunyod etilishi shaharning ijtimoiy-iqtisodiy

rivojiga turtki berdi hamda aholining umumiy ta'lim va kasbiy saviyasini oshirdi.

1925-1950-yillar davomida shaharda bir qator umumiy o'rta ta'lim muassasalari bunyod etildi. Ushbu maktablarda yetakchi siyosatchi, adabiyotshunos hamda jamoat arboblari nomlarining berilishi, aholi o'rtasida sotsiologik mafkurani mustahkamlash, shu qatori madaniy-ma'rifiy ishlar ko'lamini kengaytirish siyosatining tarkibiy qismi bo'ldi. Dastlabki sovet maktablari mahalliy boylardan tortib olingan xonadonlarda tashkil qilingan⁷. Jumladan, Engels, Frunze, Oxunboboev, Stalin, Pushkin nomidagi maktablar shunday xonadonlarda tashkil qilingan. 1923-yilda shaharda sobiq Lenin ko'chasida joylashgan Domlo Tursunjon madrasasining ro'parasida 7 yillik ta'lim tizimiga mo'ljallangan 3-sonli Zelinskiy nomli maktab barpo etiladi⁸. Sovet davrida qurilgan birinchi maktablar oddiy qurilish an'analari asoslangan holda bir qavatli loyiha asosida barpo etilgan. 1928-1929-yillarda maktabning yangi binosi quriladi hamda 2-sonli V. V. Kuybishev nomli o'rta maxsus maktabi nomini oladi.

Shahar infratuzilmasining rivojida tibbiy muassasalarining qurilishi va ularning funksional joylashuvi muhim strategik ahamiyatga ega. Buxoro shahrida dastlabki tibbiy muassasaning barpo etilish tarixi XIX asrga borib taqaladi. Tibbiyot markazining birinchi korpusi 1891-yil 30-avgustda ishga tushirilgan bo'lib, u "Rus tuzem shifoxonasi" nomi bilan o'z faoliyatini boshlagan⁹. Shifoxona Shayx Jalol va Namozgoh darvozalari orasidagi hududda, Sohibzoda va Mirakon guzarlariga tutash joyiga qurilgan. Dastlab shifoxonada 10 erkak va 5 ta ayol bemorlar uchun mo'ljallangan o'rinlar tashkil qilingan edi. Shifoxona qoshida dorixona qurilgan bo'lib, unda dorishunos Reyngard rahbarlik qilgan. 1914-yilda

6 МА. 1619-жамғарма, рўйхат-11, 316-йиғма жилд, 22-бет.

7 МА. 47-жамғарма, рўйхат-11, 27-йиғма жилд, 88-бет.

8 Бухоро шаҳар 9-сонли мактаб паспорти маълумотлари.

9 Бухоро вилоят кўп тармоқли тиббиёт маркази биноси паспорти маълумотлари.

shifoxonadagi yotoqlar soni 25 taga, 1920-yilga kelib, tibbiy xizmat 35 o'rinli shifoxonada amalga oshiriladi va ushbu muassasa "Eski Buxoro Sovet shifoxonasi" deb nomlanadi. Shu bilan birga ushbu muassasa oldida 1922-yil 25-sentabrda boshlab Eski Buxoro harbiy-shahar hospitali tashkil etilgan. Ushbu hospitalda harbiy va fuqarolik shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatilgan. 1924-yilga kelib, shifoxonada yangi bo'limlar ishga tushadi. Jumladan terapevtik va infeksiyon bo'limlardan tashqari, xirurgiya, venerologiya, ko'z va LOR (tomoq, quloq, burun) kasalliklari bo'yicha maxsus o'rinlar tashkil qilinadi. Natijada mazkur davrda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning mustahkam poydevori yaratildi. 1924-yil 5-yanvarda shifoxonaning 2-korpusi ishga tushadi hamda O'lka tropik tibbiyot instituti sifatida faoliyatini boshlaydi. Unga professor Leonid Mixalovich Isaev rahbarlik qilgan. 1938-yilda shifoxonaga rasman viloyat shifoxonasi maqomi beriladi hamda bemorlar uchun yotoqlar soni 320 taga yetkaziladi¹⁰. Bu jarayon o'z navbatida mahalliy tibbiyot xodimlarining yetishib chiqishi hamda ularning malakasini oshirishda asosiy qadam bo'lgan. 1930-yillar oxiri 1940-yillar boshlarida Buxoro shahrida tibbiy xizmat tizimini rivojlanishida muhim davrlardan biri bo'ldi.



Bino hozirgi kunga qadar saqlangan "fizioterapiya" bo'limi sifatida foydalanib kelinmoqda

Buxoro shahrida 1937-yilda birta shifoxona ish faoliyatida bo'lgan bo'lsa, 1939-yilda 434 bemorga xizmat ko'rsata oladigan ikkita shifoxona faoliyat ko'rsatgan¹¹. Shuningdek hududda tibbiy punktlar soni oshib bordi. Agar 1938-yilda bu turdagi tibbiy xizmat muassasalar soni 3 tani tashkil etgan bo'lsa, 1939-yilda 4 taga va 1940 Fyilda esa 7 taga yetgan¹². Shu bilan birga aholiga favqulodda holatlarda tezkor yordam ko'rsatish maqsadida shahar bo'ylab 1940-yilda 3 ta tez yordam avtomashinasi ham yo'lga qo'yiladi. Bunday jarayon aholiga tibbiy xizmatni yaqinlashtirish, har bir guzar hududida zarur infratuzilmani yaratish siyosati bilan bog'liq bo'lib, sovet shaharsozligi amaliyotida mavjud binolarni qayta maqsadli foydalanish orqali amalga oshirilgan. Yangi tibbiy muassasalarning aksariyati maxsus loyiha asosida qurilmagan bo'lib, ular uchun shaharda bo'sh qolgan bino yoki tarixiy obyektlardan foydalanilgan. Jumladan, shaharning markaziy qismida joylashgan Toqi Sarrafon majmuasiga kiraverishda o'ng tomonidagi Baroyi Ko'hna karvonsaroyi binosi 1-shahar ambulator tibbiyot markazi (poliklinika) sifatida faoliyat ko'rsatgan. Bu holat me'moriy-tarixiy obyektlarni ijtimoiy infratuzilmaga integratsiya qilish amaliyotini ko'rsatadi. Bu

¹⁰ Бухоро вилоят кўп тармоқли тиббиёт маркази биноси паспорти маълумотлари.

¹¹ МА. 1619-жамғарма, рўйхат-11, 796-йиғма жилд, 57-бет.

¹² МА. 1619-жамғарма, рўйхат-11, 796-йиғма жилд, 58-бет.

yondashuv tarixiy shahar muhitini saqlagan holda, uni yangi ijtimoiy talablarga moslashtirish harakati edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, 1925-1950-yillar davomida Buxoro shahrida ijtimoiy infratuzilmalarning – ta'lim, tibbiyot obyektlarning tizimli ravishda bunyod etilishi shahar madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutgan. Bu infratuzilmalar aholi turar joyiga yaqin joylashtirilishi bilan shaharsozlikda funksional yondashuv asosida ish yuritilganini ko'rsatadi. Biroq ushbu jarayon to'la mustaqil va ehtiyoj asosida emas, balki yuqoridan belgilangan

mafkuraviy yo'nalishda amalga oshirilganini ham ta'kidlash kerak. Madrasalar faoliyati tugatilib, ularning o'rniga sovet maktablari tashkil qilingan, mahalliy an'anaviy arxitektura o'rniga bir xil shakldagi, mafkuraviy ruhda qurilgan binolar vujudga kelgan. Shuningdek, ta'lim va tibbiyot muassasalarning ko'payib borishi ma'lum darajada savodsizlikka qarshi kurashga hissa qo'shgan bo'lsa-da, kadrlar yetishmovchiligi, kerakli jihozlarning yetarli emasligi hamda markazlashgan nazorat tizimining mavjudligi ular faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

KURSANTLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY VA HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH METODIKASI ("HARBIY SAN'AT TARIXI, MILLIY HARBIY MEROS VA O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI" FANI MISOLIDA)

Bahodir Tursunovich Xaitov – dotsent, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlarni ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda "Harbiy san'at tarixi, milliy harbiy meros va O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining ahamiyati haqida so'z boradi.

Аннотация. В данной статье речь пойдет о значении дисциплины "История военного искусства, национальное военное наследие и новейшая история Узбекистана" в Духовно-просветительском и военно-патриотическом воспитании курсантов, обучающихся в военном учебном заведении.

Abstract. This article discusses the importance of the subject "History of Military Art, National Military Heritage and the Latest History of Uzbekistan" in educating cadets studying in military educational institutions in a spiritual-enlightenment and military-patriotism spirit.

Kalit so'zlar: ma'naviy-ma'rifiy ishlar, harbiy vatanparvarlik, harbiy meros, xalq qahramonlari, sarkardalar, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur.

Ключевые слова: духовно-просветительская работа, военный патриотизм, военное наследие, народные герои, полководцы, Джалалиддин Мангуберди, Амир Темура.

Keywords: spiritual-enlightenment work, military patriotism, military heritage, national heroes, commanders, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur.

Bugungi tahlikali zamonda harbiy sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislarni, ayniqsa, harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Chunki ular mamlakatimizning tinchligi, chegaralarimizning daxlsizligi, yurtimizning osmonini musaffo saqlash yo'lida faoliyat olib boradilar. Ularning tarbiyasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, bir kun kelib Vatanimiz taqdirini, xalqimizning tinchligi va xavfsizligini xavf ostida qoldirishi mumkinligini esdan chiqarmasligimiz lozim. Shuning uchun ham ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, o'z kasbining sir-asrorlarini puxta egallagan, erkin va mustaqil dunyoqarashga ega bo'lgan kadrlar sifatida voyaga yetkazish yo'lida tizimli faoliyat olib borish darkor.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Hozirgi g'oyat murakkab va tahlikali zamonda tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetish, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash va mustahkamlashdek o'tkir talablar yurtimizda yashayotgan har bir mo'min-musulmon, har bir inson uchun har qachongidan ham dolzarb bo'lib turibdi"¹.

Yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan, mintaqamiz va jahonda sodir bo'layotgan keskin o'zgarishlar vaqtida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Harbiy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan "Harbiy san'at tarixi, milliy harbiy meros va O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani yoshlarni

¹ Sh. M. Mirziyoyev. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. –T.: O'zbekiston, 2023.